

XITOIY TILIDAGI SO‘Z BIRIKMALARINING TURLARI VA ULARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7332680>

Arifova Umida Abdumalikovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola xitoy tilida so‘z birikmalarini tuzilish munosabatiga ko‘ra turlarga bo‘linishini yoritib beradi. Shuningdek, maqola so‘z birikmalari asosan mustaqil so‘zlarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘lishini, ularning sintaktik xususiyatlarini aks ettiradi. Hozirgi kunga kelib, xitoy tili grammatikasining sintaksis bobida so‘z birikmalarini alohida bir butun punkt sifatida o‘rganilishi kerakligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: yondosh so‘z birikmasi, ega kesimli so‘z birikmasi, holli birikma, bog‘lovchili so‘z birikmasi, takror so‘z birikmasi.

Annotation: This article explains the classification of word combinations in Chinese according to their structure. The article also reflects the fact that phrases are mainly formed from a combination of independent words, their syntactic features. Until now, one of the urgent problems is the study of phrases as a separate whole item in the syntactic chapter of Chinese grammar.

Keywords: relative phrase, possessive phrase, case phrase, allied phrase, repeated phrase.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib, xitoy tili grammatikasining sintaksis bobida so‘z birikmalarini alohida bir butun punkt sifatida o‘rganishni taqozo etmoqda. So‘z birikmalari asosan mustaqil so‘zlarning o‘zaro birikishidan tuziladi. Shu tariqa mustaqil so‘zlarga yordamchi so‘zlarni qo‘shish orqali ham yasaladi. So‘z birikmalarining tarkibiy qismlari o‘rtasida ma‘lum grammatik munosabat bo‘ladi. So‘z birikmalari tuzilish munosabatiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. [1]

1. Ega – kesimli so‘z birikma

Ega – kesimli so‘z birikma ikki bo‘lakdan iborat bo‘lib, oldindagi bo‘lak bayon qiluvchi bo‘lak, keyingi bo‘lagi esa bayon qiluvchi bo‘lakdir. Bu ikki bo‘lak o‘rtasida bayon qiluvchi va bayon qiluvchi munosabatda bo‘ladi. [1] Masalan : 祖国伟大 zu guo wei da – buyuk davlat, 眼睛明亮 yan jing ming liang - ko‘zlari oy kabi.

Ega – kesimli so‘z birikmasida ega qismi “kim?“, “nima?“ so‘roqlariga javob bo‘lib, aniq predmeti ko‘rsatadi. Kesim bo‘lagi “qanday qilib?“, “nima qildi?“, “nima qilmoqchi?“ kabi so‘roqlarga javob beradi, kesim egani aniqlab (izohlab) keladi. Masalan : 火车开了 huo che kai le (名 + 动) - poyezd yurdi, (ot+ fe‘l) 阳光灿烂 yang guang can lan (名 + 形) – quyosh charaqlayapti, (ot + sifat) 今天星期天 (名 + 名) - bugun yakshanba, (ot+ ot) 劳动积极 (动 + 形) - faol mehnat qilish, (fe‘l + sifat). Yuqorida keltirilgan misollarda ega aniqlash yoki aniqlangan munosabatni bildirganini kuzatishimiz mumkin.

2. Kesim to‘ldiruvchili so‘z birikma

Kesim to‘ldiruvchili so‘z birikma ikki bo‘lakdan tashkil topadi, oldingi bo‘lagi ish harakatini ifodalaydi. Keyingi bo‘lagi esa ish harakatini obyektini bildiradi. Ikki bo‘lak o‘rtasida

boshqarilish va boshqarish munosabati ifodalanadi. Masalan :学习科学 xue xi ke xue ijtimoiy fanlarni o‘rganish.

3.Yondosh (ergash) so‘z birikmasi

Yondosh so‘z birikmasi ham ikki bo‘lakdan tashkil topgan bo‘lib, oldingi bo‘lagi aniqlovchi bo‘lak, keyingi bo‘lagi izohlovchi bo‘lakdir. Bu ikki bo‘lak o‘rtasida aniqlovchi va aniqlanuvchi munosabat mavjud. O‘z navbatida yondosh so‘z birikmalari ikki turga bo‘linadi: aniqlovchili va holli so‘z birikmalariga. Aniqlovchi xitoy tilining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi, ko‘p hollarda ot so‘z turkumiga tegishli so‘zlar bilan ifodalanadi. Kimniki?, qanday qilib?, qayerdan?, qancha?, kabi savollarga javob beradi. Masalan : 木头桌子 (名+名) mu tou zhuo zi (ming + ming) – yog‘och stol (yog‘ochdan yasalgan stol), (ot + ot), 北京的故 (名+名) Bei jing de gushi (ming + ming) – Pekin hikoyasi (ot + ot), 他 - quyoshli osmon (sifat + ot), 敌人的撤退 (名+动) di ren de che tui (ming + dong) – dushmanidan himoyalaniş (ot + fe‘l).

4.Holli so‘z birikma.

Xitoy tili grammatikasida holli birikmalar ikkiga bo‘lib o‘rganiladi.[2] Birinchi so‘z turkumiga oid so‘zlardan tuzilgan birikmalar. Hol xitoy tili grammatikasining ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi.Hol qanday qilib?nima uchun?fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlardan tuzilgan birikmalar, ikkinchisi, sifat holi qanday vaqtda? qayerda? kabi savollarga javob bo‘ladi. Masalan: 认真处理 (形+动) ren zhen chu li (xing + dong) – haqqoniy boshqaruv (sifat + fe‘l), 批评地继续 (动+动) pi ping di zhi xu (dong + dong) tanqid qilishni davom ettirish, 明天到达 (名+动) ming tian dao da (ming + dong) ertagacha yetib bormoq 忽然离开 (副+动) hu ran li kai (fu + dong) –to‘satdan tark etish, 已经三 (副+数量) yi jing san nian (fu + shu liang) allaqachon uch yil bo‘ldi. [2]

Izohlanuvchi so‘z ot bo‘lganda oldingi izohlovchi so‘z odatda aniqlovchi bo‘ladi. Masalan: 学校的房子 (xue xiao de fangzi) maktabning xonasi, 干净衣服 (gan jing yi fu) toza kiyim, 五台机器 (wu tai ji qi) beshta elektronika, 三好学生 (san hao xue sheng) uchta yaxshi o‘quvchi.

5. To‘ldiruvchili so‘z birikma.

Xitoy tilida to‘ldiruvchili so‘z birikmalari deb, asosan fe‘l va to‘ldiruvchidan tashkil topgan bo‘laklarga nisbatan aytiladi. Gap boshidagi birinchi bo‘lak fe‘l va sifatni ifodalaydi, keyingi bo‘lak esa to‘ldiruvchi ya‘ni, gapning birinchi bo‘lagini izohlab keladi. Masalan: 坚持下来 (动+动) jian chi xia lai (dong + dong) – sinmaslik ya‘ni bukulmaslik, 写得认真 (动+形) xie dei ren zhen (dong + xing) yozishi tartibli, 舒服极了 (形+副) shu fu ji le (xing + fu) – o‘zini judayam qulay xis qilish, 出去一趟 (动+数量) chu qu yi tang (dong + shu liang) – bir qadam chiqish, 安静几天 (形+数量) an jing ji tian (xing + shu liang) – bir necha kun osoyishtalik.

6.Bog‘lovchili so‘z birikmalari.

Bog‘lovchili so‘z birikmalari ikki va undan ortiq teng bo‘laklardan tuzilgan so‘z birikmalaridir.[3] Tuzilish jihatidan asosli yoki asosli emas deb turlarga ajratilmaydi. Bunday birikmalarda o‘zaro izohlash bo‘lmaydi. Teng bo‘laklarorasida ba‘zida tinish belgisi qo‘yiladi. Ba‘zida 并且(bing qie) – shuning uchun, 而 (er) - ammo, 和 (he) – va, 或 (huo) – yoki kabi bog‘lovchilar ishlatiladi. Masalan: 工人农民 (gong ren nong min) – qishloq ishchilari, 又说又笑 (you shuo you xiao) – ham gapiradi ham kuladi, 北京, 上海或天津(Bei jing, Shang hai huo Tian jin) – Pekin, Shanhai yoki Tianjin, 去还是不去(qu hai shi bu qu) boradi yoki bormidi.

Xitoyshunos olim Zhang Jin bog‘lovchili birikmalarga quydagicha ta‘rif bergan: bog‘lovchili so‘z birikmalari ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, grammatik jihatdan har hil ma‘noli so‘zlar yig‘indisiga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan: 白菜跟萝卜 (名 + 名) Bai cai geng luo bo (mnig + ming) – karam bilan sabzi (ot + ot), 辱骂与恐吓 (动 + 动) - ru ma yu kong xia (dong + dong) - qattiq qo‘rqish orqali qaltirash (fe‘l + fe‘l), 既准确又生动 (形 + 形) - ji zhun que you sheng dong (xing + xing) – ham aniq ham jonli (sifat+ sifat), 一个或者两个 (数量 + 数量) - yi ge huo zhe liang ge (shu liang + shu liang) – bitta yoki ikkita (son + son), 爸爸, 妈妈和我 (名 + 名 + 代) - ba ba, mama he wo (ming + ming + dai) – otam, onam va men (ot + ot + olmosh).

Bog‘lovchili so‘z birikmasi uch turdagi mantiqiy bog‘lanishni o‘z ichiga oladi; ko‘p qo‘llaniladigan bog‘lovchilar 和 (he) - va, 跟 (gen) - bilan, 同 (tong) - birga, 与 (yu) – orqali kabi bog‘lovchilari yetkazib berish munosabatiga ko‘ra; 并 (bing) – ga ko‘ra, 而且 (er qie) – balki, 或者 (huo zhe) – yoki, 还是 (hai shi) – yoki ko‘p qo‘llaniladigan bog‘lovchilar tanlash munosabatiga ko‘ra.

Bog‘lovchili so‘z birikmalari o‘rtasida hech qanday qo‘shimchalar bo‘lmaydi, faqatgina ular o‘rtasiga tinish belgisi (,) yoki (.) qo‘yilishi ham mumkin yoki qo‘yilmasligi ham mumkin.

Bog‘lovchi bilan to‘ldiruvchili so‘z birikmasi esa, bog‘lovchi va uning to‘ldiruvchilaridan tashkil topgan gaplar hisoblanadi. Masalan: 在教室里(看书) - zai jiaoshi li (kan shu) sinfxonada (kitob o‘qish), 从今天(开始) - cong jin tian (kai shi) bugundan (boshlab), 把问题(搞清楚) - ba wenti (gao qing chu) muammoni (aniqlashtirish), 对月球(的研究) - dui yue qiu (de yanjiu) globusdagi (izlanish), (生) 于 1950 年 – (sheng) yu 1950 nian (tug‘ilgan) 1950 yilda.

7. Takror so‘z birikmasi.

Xitoy tilida takror so‘z birikmasini yana qo‘shilgan so‘z birikmasi ham deb atash mumkin. Bu turdagi so‘z birikma bir yoki bir nechta qismlarga bo‘linishdan tashkil topadi. Har bir bo‘lingan qismi bitta kishilikni yoki predmetni ko‘rsatadi, umumiy bitta gap tuzishga xizmat qiladi. Masalan: [4] 科学家李四光 (名 + 名) ke xue jia Li si guan (ming + ming) – olim Li si guan (ot + ot), 人家万老师 (代 + 名) ren jia Wan lao shi (dai + ming) – Boshqalar Wan ustoz (olmosh + ot), 你们三位 (代 + 数量) ni men san wei (dai + shu liang) – sizlar uchalovingiz (olmosh + son), 王小林同志 (名 + 名) Wan Xiao lin tong zhi (ming + ming) Janob Wan Xiao lin (ot + ot).

8. Tomonni ifodalovchi so‘z birikmalari

Tomonni ifodalovchi so‘z birikmalari ot, fe‘l va sifat so‘z turkumlarini ifodalaydi, o‘rin joyni bildiruvchi so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Masalan: 教室里 (jiao shi li) – auditoriyada, 放假以前 (fang jia yi qian) – ta‘tildan oldin, 桌子上边 (zhuo zi shang bian) – stol ustida. [4]

9. Son so‘z turkumli so‘z birikmalari

Son so‘z turkumli so‘z birikmasida hisob so‘zining oldidan son qo‘shiladi, u olmoshni yoki sifatni ifodalab keladi, 大 (da) katta, 小 (xiao) kichkina so‘zlaridan tashkil topadi. Masalan, 三条这只 (san tian zhe zhi) bu uchta, 那个 (na ge) anavi, 那五本 (na wu ben) anavi beshta daftar, 一大块 (yi da kuai) bitta katta bo‘lak. [5] Yana shunday birikmalar ham borki, bular fe‘l son so‘z turukumidan tuzilgan birikmalardir. Masalan, 三回 (san hui) uch marta qaytish, 这一趟 (zhe yi tang) bu birinchi yotishi, 哪次 (na si) o‘tgan safar. [5]

So‘zlar orasidagi aloqaning turli vositalar bilan ifodalanishi bu har xillik o‘sha so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga kirishiga, ularning turli leksik-grammatik xususiyatlariga bog‘liq. [6]

XULOSA

Sintaktik aloqalarning turli yo‘llar bilan ifodalanishiga quydagilar: qalamda yozmoq (so‘zlarning aloqasi sintetik yo‘l bilan ifodalangan) - qalam bilan yozmoq(aloqa analitik yo‘l bilan ifodalangan). Sintaktik aloqa so‘z birikmasining elementlari orasida ham, gapdagi bo‘laklar orasida ham (masalan, ega+kesim), umuman, so‘zlarning turli tipdagi bog‘lanishlarida uchraydi.[7]

Sintatik munosabatlarni ifodalash yo‘llari: so‘z formalari orqali ifodalash, yordamchi so‘zlar orqali ifodalash, so‘z tarkibi orqali ifodalash va intonatsiya orqali ifodalash. Demak, sintaktik vositalarning ko‘rinishlari quyidagicha; formal-grammatik vositalar, leksik-grammatik vositalar, pozitsion vositalar va intonatsion vositalar. Bu sintaktik vositalar so‘z birikmasi hosil qilishdagina emas gap qurishda ham, anjir va anor tipidagi so‘z tizmalari yaratishda ham qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Liu Shu xian. Xiandai han yu. Beijing,1989. 380-382 p.
2. Lu Zhi wei. Hanyu yufa. Beijing, 1983. 15-16 p.
3. X.K. Komilova Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2009. 35 b.
4. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.
5. Abdullayevna, N. S. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии Насирова Саодат Абдуллаевна. *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ*, 3, 384.
6. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
7. Anvarovna, N. S. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. *ББК 66.4 (5 Kum) A 251*, 143.
8. Alimova, S. F. (2022). THE STUDY OF THE TOPIC SYNONYMY AND RHYTHM IN THE WORKS OF DOMESTIC AND FOREIGN LINGUISTS. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(06), 7-10.
9. Sultanova, L. (2021, February). PROBLEMS OF STUDYING MODERN CHINESE TERMINOLOGY. In *Конференции*.
10. Khasanova, F. M. (2016). LEXICAL AND GRAMMATICAL PECULIARITIES OF THE LANGUAGE BAIHUA WITHIN THE CLASSICAL CHINESE LANGUAGE–WENYAN (ON THE EXAMPLE OF NOVELS" WOLF" PU SONGLING). *International scientific journal*, 19.
11. Zaynitdinovna, A. Z. (2022). Rules for Using the Verb in a 把 “Bǎ” Sentence. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 3(6), 5-9.
12. Badalbayev, D. F. O. G. L. (2021). XITOIY OG ‘ZAKI NUTQIDA KONSTRUKSIYALI BIRIKMALARNING O ‘RNI VA XUSUSIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 250-255.
13. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 汉语语音及它的教学问题 (乌兹别克斯坦学生为例). *Современные востоковедческие исследования*, 3(1), 6-13.
14. Yusupova H. On the modern word formation methods in Chinese. *Asian journal of multidimensional research*. Vol,9.Issue 12. 2020 ISSN 2278-4853 (OAK)
15. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
16. Омонов, К. Ш. (2015). Типы деловых документов в истории старотюркского литературного языка. *Paradigmata poznani*, (3), 71-74.

-
17. Khalmurzaeva, N. T. (2021). CONTRAST DESCRIPTION OF JAPANESE AND CHINESE VERBAL COMMUNICATIVE BEHAVIOR. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(12), 170-176.
18. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
19. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.